CHET TILINI O'RGANISHDA ONA TILINING AHAMIYATI

Islom Xo'jamqulov
O'zDJTU ning "Roman-german filologiyasi" fakulteti talabasi

Bugungi kunda vatanimizda yoshlar ta'lim tarbiyasini yaxshilash, kelajagimiz egalari ilmiy salohiyatini yanada rivojlantirish maqsadida tegishli chora-tadbirlar olib borilib, bu borada ko'plar qarorlar imzolanmoqda. Ayniqsa, zamon talablaridan ortda qolmaslik, tobora rivojlanayotgan jahon tajribasini oson o'zlashtirish, madaniyatlararo tajriba almashishni ko'paytirish maqsadida chet tillarini o'qitish usullari amaliyotga keng tatbiq qilinmoqda.

Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida" gi 2021-yil 19-maydagi PQ-5117 qarori qabul qilindi.

Bu kabi qonun loyihalarining ishlab chiqilishi chet tillarini o'rganishga qiziquvchilar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda.

Albatta, biron bir chet tilini o'rganish davomida o'ziga yarasha qiyinchilik jihatlari uchraydi. Bularning asosiy sababi esa, biz ko'pincha e'tibor qaratmasdan o'tib ketadigan ahamiyatga molik jabhalarning ta'siridir.

Ularning eng e'tiborli jihati bu xorijiy tilni o'rganishda ona tilimizning katta ahamiyatga ega ekanligidir.

Xo'sh, buning ahamiyatga molik jihati nimada?

Hozirgi kundagi xorijiy tillarni o'rganish metodikalarini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, barchasida darajaning bosqichma bosqich o'rgatish tizimi yo'lga qo'yilgan.

Jumladan, tarjima sohasida birinchi navbatda so'z boyligini oshirish tursa, filologiya sohasida ham so'z boyligini oshirish, ham pedagogik mahoratni rivojlantirish bosqichlaridan o'tiladi. Shuni aytib o'tish joizki, har bir til o'rganuvchi ongida mujassam bo'lgan g'oyalar mahsuli birinchi navbatda o'z ona tilida namoyon bo'ladi. Endi o'ylab ko'raylik-chi, o'z ona tilimizdagi so'zlar rang-barangligidan yetarlicha foydalana olmasdan, qanday qilib boshqa tillardagi so'zlarni o'z ona tilimizga muqobillashtira olamiz?

Misol uchun Nemis tilidagi "Wer will, der kann" iborasini oladigan bo'lsak, undagi har bir so'zning tarjimasi "Kim xohlasa, u qila oladi" ko'rinishidagi tarjima kelib chiqadi. Lekin biz uni tilimizning boyligidan foydalangan holda "Qimirlagan qir oshar" kabi o'zbek iborasi holatiga keltirib tarjima qilsak, bu iboraning ta'sirchanligi yanada ortadi. "Daheim ist es am besten" iborasi. Bu ibora ham so'zma-so'z tarjima qilinganda "O'z uying eng yaxshisi" degan ma'noni anglatadi. Lekin uni "O'z uying , o'lan to'shaging" kabi ko'rinishga keltirsak, tarjimaning

muqobil variantini topgan bo'lamiz. Va bu kabi misollar chet tilini o'rganish davomida yo'limizdan ko'plab chiqishi, shubhasiz.

Pedagoglarga ham ma'lumki, chet tilini o'qitishda o'z ona tilini chuqurroq o'rgangan o'quvchilarga qo'shimcha tilni o'rgatish boshqalarga nisbatan oson kechadi. Chunki bu kabi til o'rganuvchilar beixtiyor tillarni bir biriga qiyoslab o'rganadi va ularda tillar integratsiyasi ham oson amalga oshadi. Ilmiy sohada o'rganishning "Qiyosiy" shakli ancha ommabop va tushunarli metodlardan biri hisoblanadi.

Inson uzoq muddatli jarayonni boshlashdan oldin ma'lum strategik ketma-ketlikka amal qilsa, nafaqat o'z maqsadiga tez va oson erishadi, balki o'z o'rnini mustahkam egallay oladi. Xuddi chet tilinining turli sohalarini mukammal o'rganish uchun mustahkam poydevor sifatida o'z ona tilimizga kuchli e'tibor berish kabi.

YUNESKO ning bosh direktori Koichiro Matsuuro 2003-yil 21-fevralda Xalqaro ona tili kuni munosabati bilan so'zlagan nutqida ham ona tili haqida quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan edi: "Ona tiliga nima uchun bu qadar e'tibor berilmoqda? Buning sababi shuki, tillar insoniyat ijodining butun rang-baranglikdagi betakror ifodasidir. Aloqa, idrok va tafakkur quroli sifatida til biz dunyoni qanday ko'rishimizni tasvirlaydi. Inson boshqa tillarga sohib bo'lganida ham farq yo'q".

Inson o'z Ona tiliga jiddiy munosabat bildirgan holda yondashishi, shubhasiz, boshqa tillarni tez, oson va mustahkam o'rganishiga zamin yaratadi.

Birgina tarjima sohasining sinxron turini misol tariqasida keltiradigan bo'lsak, bu tur og'zaki tarjimaning eng qiyin turi hisoblanadi. Undan tarjimon gapiruvchi notiqdan bir so'z yoki jumlaga orqada qolib tarjima qiladi. Unga tarjima uchun vaqt berilmaydi. Tarjimon bu paytda ham eshitadi, ham tushunadi, ham tarjima qiladi, ham gapiradi.

Mana shunday operatsiyalarning barchasini sinxron tarjimon bir vaqtda bajaradi.

Sezganingizdek bunday yuqori natijalarga erishish uchun mustahkam bilimlar bilan yetib kelish kerak. Til o'rganishdagi ilk poydevor ham, shubhasiz, o'z ona tilimizdir. To'g'ri, namuna uchun har safar oddiylikdan murakkablikka o'tilgan. Lekin maqsadingiz har doim eng yuqori cho'qqi bo'lsin!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Lex.uz;
Cyberleninka.ru;
Shakhnoza Quvonova: "Deutsche Grammatik".